Tarbiya jarayonida hamkorlik munosabatlarining ijtimoiy-psixologik omillari

Jalilov Tulqin Tuymuradovich
Qashqadaryo viloyati Muborak tumani
8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi

Annotatsiya. Bolaning o’sishi va rivojlanishida sharoitlarning mohiyati juda oddiy. Tabiat va mehr-muhabbat yosh avlodni ehtiyotkorlik bilan zinama-zina yuqoriga – rivojlanish pillapoyalari sari yetaklaydi. Biz esa faqatgina bu harakatlarning xususiyatlarini tushunishimiz va o’z vaqtida qo’llab-quvvatlab, ushbu rivojlanish uchun sharoit yaratishimiz mumkin. Mazkur maqolada tarbiya jarayonida hamkorlik munosabatlariining ijtimoiy-psixologik omillari haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Ota-ona, farzand, ta’lim, tarbiya, muhit, hamkorlik munosabati, bola, sharoit, maktab, o’qituvchi.

Har bir ota- ona farzandining sog’lom, baquvvat, ma’naviy jihatdan yetuk inson bo’lib etishishini istaydi va buning uchun bor kuch va g’ayratini ayamaslikka harakat qiladi.Ba’zan ota-onalar tajribasizlik qilib «Bolamni yaxshi edirsam, hech kimdan kam qilmay kiyintirsam, hayotda o’z o’rnini topa olishi aniq» deb noto’g’ri fikrga boradilar. To’g’ri bunday ota-onalarning farzandlari sog’lom bo’lishi mumkin, lekin ularning ruhiy, aqliy va ma’naviy jihatdan rivojlanishi ham etarli darajada bo’lishi lozim.
O’sayotgan bolaning har jihatdan sog’lomligi va uning yetuk shaxs sifatida kamol topishida nafaqat ota-onaning balki boshqa yaqinlari, o’qituvchi,tarbiyachilarning o’rni beqiyosdir. Bundan tashqari bola ruhiyatining rivojlanishida atrof-muhit, shuningdek ta’lim-tarbiya ham muxim rol o’ynaydi. Bolaning psixologiyasini bilib olgan kattalar, uning qobiliyati, qiziqishi, ichki his-tuyg’ulari haqidagi tasavvurga ega bo’lishlari mumkin. Bu esa, unga tarbiya berishda eng samarali vositalardan biri bo’lib xizmat qiladi. Kattalarning vazifasi-bolani boricha qabul qilib, doimo yaxshi ko’rishdir.U o’zining odatlari va xislatlari bilan tabiatan shunday. Uni qandaydir o’lchamga solishning keragi yo’q. Dastlab bolaning «Men»i oilada anglana boshlanadi va bundan barchani o’z vaqtida ogoh etadi. Sekin- astalik bilan u katta hayotga qadam qo’ya boshlaydi ya’ni bolalar bog’chasi, do’stlar davrasi, jamoada va hakozo. Endi boshqa muloqot va boshqa maqsadlar vujudga keladi. Shu erda uning ijtimoiy «Men»i tug’iladi. Aynan shu davrda eng asosiy narsa, samimiy muhabbatni saqlab qolishdir. Ushbu muhabbatni tor doirada, chegaralangan, nima bilan yoki kim bilandir bog’liqlikka aylanishiga yo’l qo’ymaslik kerak. Oilaning asosiy vazifasi sog’lom avlodni kamol toptirishdan iboratdir.
Oila muqaddas qarorgoh hisoblanadi. Har bir oila ustunlari-er va xotin o’zlarining ana shu muqaddas qarorgohlarida osoyishtalik, birdamlik, uyg’unlik bo’lishi uchun tinmay harakat qilib yashaydilar. Mana shu jihatlar o’rnatilgan oila takomillashib, mustahkamlanib, toboro go’zallashib boraveradi. Bejizga muhtaram Yurtboshimiz yillarni ham oila bilan bog’lab qo’ymadi. Chunki, bu dargoh millatning urf-odatlarini saqlashga ko’maklashadi. Shu bilan birga oila kelajakda farzandlar qanday inson bo’lib kamol topishiga ta’sir ko’rsatadigan tarbiya o’chog’idir. Demakki, tarbiyaviy jarayon bu oiladan boshlanadi. Kundalik hayotimizda, ishda, o’qishda, ko’chada, mehmondorchilikda, turli rasmiy tadbirlarda o’zimizni to’g’ri tutishni bilishimiz aynan shu dastlabki tarbiyadan xosil bo’ladi. Xalqimizda shunday naql bor: “Ota-onaning burchi faqat farzandni dunyoga keltirganligi bilan emas, balki yaxshi farzand tarbiyalagani bilan ham belgilanadi”. Oilada bolalarni tarbiyalash esa bu Vatanga bo’lgan muhabbatdan boshlanadi. Vatanga bo’lgan muhabbat har bir insonning o’z ota-onasiga, yaqinlariga, yoru-do’stlariga, elu yurtiga muhabbati bilan bog’liq.Pedagoglar o’rtasida “Ta’lim berib tarbiyalaymiz, tarbiyalab turib ta’limni shakllantiramiz” degan tushuncha bor. Shuning uchun

tarbiyaning ta’limdagi, ta’limning tarbiyadagi o’rni beqiyosdir. Bu o’zaro bog’liqlikni yosh ota-ona o’z farzandi bog’chaga bora boshlagan birinchi kundan boshlaboq izchil amalga oshirish lozim.

Har bir ota-ona farzandini hayotga, ta’lim muassasalariga tayyorlashni bola tug’ilganidan boshlagani ma’qul. Chunki, bolaga qanday ko’mak kerak degan savolga javob berish uchun bolaning ilk davrini sinchiklab o’rganish lozim bo’ladi. Bolaning har bir bosqichdagi ehtiyojlari asosan bilim, ko’nikma va qobiliyatlarini rivojlantirish orqali amalga oshiriladi, bunda ota-ona va tarbiyachilarning o’rni katta ahamiyatga egadir.

Bolaning rivojlanish bosqichlaridagi jarayonlar quyidagilardan iborat.

1-2 yoshlik bolalar:

-kattalar harakatiga taqlid qilishni boshlaydi;

-so’z va gaplarni gapira oladi va tushunadi;

Buning uchun bolaga qanday yordam berish kerak degan savol tug’iladi?

-kattalar o’z hatti-harakatlarida bolaga o’rnak bo’lishi kerak;

-bolaga so’zlarni aniq, gaplarni to’g’ri ifodalashga yordam berish;

-bolaga yoshiga mos turli xil ertaklar, qiziqarli hikoyalarni so’zlab berib, uning mohiyatini tushuntirish kerak bo’ladi.

2-3 yoshli bolalar:

-yangi malaka va ko’nikmalarni egallaydi;

-so’z boyligi oshib boradi;

-turli xil harakatlarga taqlid qila boshlaydi;

-jismoniy mashqlarni bajaradi;

-bolaga yangi malaka va ko’nikmalarni egallashda to’g’ri yo’nalish berib borish;

-bolaning so’z boyligini oshirish uchun u bilan ko’proq muloqotda bo’lish, unga she’rlar, qo’shiqlar o’rgatish;

-bola bilan sayr qilishni tashkil etish, xayvonot bog’i, qo’g’irchoq teatri, istirohat bog’lariga sayohat uyushtirish;

-bolani sog’lom bo’lishi uchun kun tartibini to’g’ri tashkil etish, badantarbiya mashqlariga jalb etish;

-uyda bolaga yoshiga mos tarzda kichik topshiriqlarni berish va uni mustaqil bajarishga o’rgatish borish lozim.

3-5 yoshli bolalar:

-bolaning atrofdagi voqea-hodisaga nisbatan qiziqishi ortadi, diqqat va xotirasi rivojlanadi;

-bolada qaysarlik holatlari kuchayib, o’rinsiz harakat qilishni boshlaydi;

-bola talabchanligi oshib, ko’p gapiradi va savollar bera boshlaydi;

-kattalarga xos ishlarni qilishini istaydi;

-bolaning ijodiy qobiliyati ko’rina boshlaydi;

-bolada o’zining “men”i shakllanadi, do’stlari bilan o’ynashni yoqtiradi, ammo engilishini xush ko’rmaydi.

Xo’sh, bunday vaqtda bolaga qanday yordam ko’rsatish kerak bo’ladi?

Buning uchun bola aqlini charhlovchi turli xil o’yinlarni tashkil qilish, hatti-harakatlarini nazorat qilish, bolaning savollariga to’g’ri va aniq javob berish, uning ijodiy qoobiliyatini hurmat qilish, shu bilan birgalikda bolani rasm chizish, plastilin, mozaika, konstruktor o’yinlari bilan ta’minlash lozim.

6-7 yoshli bolalarda:

-qiziquvchan, intiluvchan, kasb-hunarga moyillik va taqlid kuchayadi;

-bilim olishga va til o’rganiga qiziqishi ortadi;

-ma’naviy dunyoqarashi shakllanadi, umuminsoniy axloq-odob qoidalarini o’zlashtiradi;

-o’z hissiyotlarini namoyon etishga harakat qiladi;

-kattalar faoliyatini yoqtiradi, fe’l-atvorning kattalarga xos xususiyatlari shakllana boshlaydi;

-jamoa o’yinlarini o’ynaydi, ommaviy tadbirlarda ishtirok etadi;

- u o’zini o’zi erkin boshqaradi.

Bunday yoshda bolaning qiziqishlarini nazorat qilib borish, unga to’g’ri munosabatda bo’lish, yo’llanma berish, bolaning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda uni turli rangli rasmli, jumboqli, til o’rganishga oid kitob, gazeta, jurnallar bilan ta’minlash, u bilan birgalikda shug’ullanish, umuminsoniy axloq-odob qoidalarini o’zlashtirish, “Nima yaxshi-yu, nima yomon?”, “Mumkin” va “mumkin emas”, “xohlayman” va “burchliman” kabi tushunchalarni ajarata bilishni o’rgatish kerak bo’ladi.

Xulosa qilib aytish lozimki, bola tarbiyasida ota-onaga katta mas’uliyat yuklanadi. Ular o’z farzandlarini hatti-harakatlari orqali xarakterini o’raganib, oilada tarbiya jarayoni yuzaga keladi. Tarbiya-bu oiladan boshlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Asqar Munavvarov. “Oila pedagogikasi”, Toshkent, “O’zbekiston”, 2014 y, 112-bet
2. Sobolev YA.A. “Ota-onalarga pedagogik bilim berish”. –Toshkent, 2007.